XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-015-11-155-K/24 Dang‘ara tumani

Dang‘ara tumani 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga muvofiq hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2025 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-031-11-0-K/24-sonli qaroriga asosan, xalq deputatlari Dang‘ara tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi “Farg‘ona viloyatining 2025 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VII-3-031-11-0-K/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Dang‘ara tuman mahalliy byudjetining 2025-yilgi daromadlari **142 936,5 mln.so‘m** va xarajatlari **142 936,5 mln.so‘mga** rejalashtirilganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi inobatga olinsin.

3. Qonun bilan quyidagi tashkilotlar tuman byudjetlaridan viloyat byudjetlari orqali moliyalashtirilishi nazarda tutilsin:

Tuman Soliq inspeksiyasini saqlash xarajatlari;

Sog‘liqni saqlash va tasarrufidagi quyi tashkilotlarning saqlash harajatlari.

4. Quyidagilar:

Dang‘ara tumanining tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga;

Dang‘ara tuman mahalliy byudjeti xarajatlarining 2025-yildagi asosiy ko‘rsatkichlari **2-ilova**ga**;**

Viloyat va tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari **3-ilova**ga;

Bunda, ajratma meyorlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy byudjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Farg‘ona viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

5. Tumanning mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **715,0 mln. so‘m** etib belgilansin.

6. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **4-ilova**ga;

7. Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **5-ilova**ga;

8. Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalar **6-ilova**ga;

9. Suv solig‘i uchun qo‘llaniladigan koeffitsient va mutloq qiymat **7-ilova**ga;

10. Tumanning mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 871,5 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda,

Tuman mahalliy byudjetining 2025-yil uchun zaxira jamg‘armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

Tuman mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin;

11. Qonun bilan xalq deputatlari Kengashini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini tuman byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

12. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Akramov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (K.Latipov), tuman Soliq inspeksiyasi (T.Arzimatov)lar bilan birgalikda 2025-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

13. Belgilansinki:

barcha tumandagi mas’ul tashkilotlar tomonidan 2025-yilda byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa

majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligigaalohida e’tibor qaratilsin.

14. Tuman soliq inspeksiyasi (T.Arzimatov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

15. Majburiy ijro byurosi Dang‘ara tuman bo‘limi (Sh.Fayozov), tuman soliq inspeksiyasi (T.Arzimatov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

16. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Akramov, tumandagi tegishli tashkilotlar rahbarlari:

Byudjet daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishini ta’minlash;

soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar belgilash, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

tegishliligi ravishda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarning byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalari bo‘yicha hisobotlarini xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

17. Tumandagi mas’ul tashkilotlari mahalliy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar har chorakda byudjet ma’lumotlarining ochiqligini ta’minlash hamda byudjet shakllanishida va ijrosida jamoatchilik ishtirokini faollashtirish yuzasidan tumanda muhokamalar va tushuntirish ishlarini muntazam ravishda olib borish choralarini ko‘rsin.

18. Tuman mahalliy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 15 yanvar kuniga qadar byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida tuman mahalliy Kengashga hisobot berib borsin.

Bunda, tumandagi byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

-o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning jamlanma xarajatlar smetasi va shtat jadvallari, xarajatlar smetasi va shtat jadvallari, jamlanma daromadlar va xarajatlar, daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlar to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

davriy jamlanma moliyaviy hisobotlar to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishi uchun shaxsan mas’ul ekanliklari belgilab qo‘yilsin.

19. Xalq deputatlari tuman Kengashiga:

mahalliy hokimliklar, mas’ul tashkilotlar tomonidan 2025 yil uchun belgilangan byudjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlanishi, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rilishi, byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishlari yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar ahvoli bo‘yicha deputatlik nazoratini o‘rnatsin.

20. Tuman hokimligi Axborot xizmati (U.Usmonov), Tuman soliq inspeksiyasi (T.Arzimatov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (K.Latipov) bilan birgalikda tumandagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

21. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (D.Dadamirzaev) hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari R.Akramov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-11-155-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Dang‘ara tuman mahalliy byudjetining

2025 yil uchun daromadlarining asosiy ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

№	Daromad turlari	Summasi
I	**JAMI DAROMADLAR**	**142 936 474**
II	**Mahalliy byudjet daromadlari prognozi**	**142 936 474**
1	Foyda solig‘i	7 063 200
2	Aylanmadan olinadigan soliq	13 129 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	60 517 000
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 507 000
5	Aksiz solig‘i, shundan	11 560 800
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	*11 560 800*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 471 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	12 599 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 732 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 946 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	38 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 171 474
12	Davlat ulushi bo‘yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
13	Davlat boji	0
14	Yig‘imlar	0
15	Jarimalar	0
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	202 000
III	**Transfert**	**0**

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-11-155-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Dang‘ara tuman mahalliy byudjetining
2025 yil uchun harajatlarining asosiy ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

	Xarajatlar - jami	**142 936 474**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar**	**60 945 353**
1.1	**Ta’lim sohasi**	**53 295 134**
	Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	4 843 874
	Umumta’lim maktablari	9 154 641
	Maktabgacha ta’lim tashkilotlari	31 975 793
	Barkamol avlod bolalar markazi	1 909 715
	27-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	3 003 631
	"Mening maktabim" loyihasi	2 407 480
1.2	**Madaniyat sohasi**	**2 815 544**
	Madaniyat bo‘limi	2 114 537
	Axborot kutubxona markazi	701 007
1.3	**Bolalar va o‘smirlar sport maktabi**	**4 657 978**
1.4	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga “dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi”**	**23 100**
1.5	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**153 597**
2.	**Iqtisodiyot xarajatlari**	**23 989 886**
2.1	Obodonlashtirish boshqarmasi	15 314 901
2.2	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 187 853
2.3	Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi	2 247 618
2.4	Fermerlar buxgalteriyasini saqlash xarajatlari	424 561
2.5	Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi bo‘limi	402 953
2.6	**"Mahalla byudjeti"** jamg‘armasi	1 412 000
3.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari**	**23 463 266**

3.1	Tuman hokimligi	2 534 213
3.2	Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi (hokim yordamchilari)	5 208 655
3.3	Xalq qabulxonasi	141 850
3.4	Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	234 426
3.5	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	3 376 914
3.6	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 519 758
3.7	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazi	1 663 130
3.8	Yoshlar ishlari agentligi	5 609 236
3.9	Madaniyat bo‘limi (apparat)	119 000
3.10	Veterinariya bo‘limi	2 056 084
4.	**Zahira jamg‘armasi**	**1 871 567**
5.	**“Fuqarolar tashabbusi” jamg‘armasi**	**32 666 402**
6.	**Boshqa xarajatlar**	**0**

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-11-155-K/24 -son qaroriga
3-ilova

2025 yil uchun belgilangan soliq prognoz ko‘rsatkichlari bo‘yicha ajratma me’yorlari

ming so‘mda

№	Soliq turlari	Tuman mahalliy byudjetiga (foizlarda)	Viloyat mahalliy byudjetiga (foizlarda)
1	Foyda solig‘i	60	40
2	Aylanmadan olinadigan soliq	100	
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	100	
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	100	
5	Benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	40	60
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	100	
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	100	
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100	
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	100	
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100	
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	100	
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	100	

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-11-155-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	MFY nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (1 ga uchun)
1.	Uvaysiy MFY	1,07	41 519
2.	Pishqaron MFY	1,07	41 519
3.	Navbaxor MFY	1,07	41 519
4.	Chinobod MFY	1,07	41 519
5.	G‘umoyli MFY	1,07	41 519
6.	G‘umoyli MFY	1,07	41 519
7.	Qora ko‘rpa MFY	1,07	41 519
8.	Teliming MFY	1,07	41 519
9.	Naymancha MFY	1,07	41 519
10.	Tangriqul MFY	1,07	41 519
11.	Minglar MFY	1,07	41 519
12.	Aravon MFY	1,07	41 519
13.	Qashqar MFY	0,99	38 443
14.	Targ‘ova MFY	0,99	38 443
15.	Raxmatillo MFY	1,07	41 519
16.	Boybo‘ta MFY	0,99	38 443
17.	Tumor MFY	0,99	38 443
18.	Qum qiyali MFY	0,99	38 443
19.	Kiyali MFY	0,99	38 443
20.	Istiqlol MFY	0,99	38 443
21.	Taypoq MFY	0,99	38 443

22.	Uymovut MFY	0,99	38 443
23.	G‘alaba MFY	1,07	41 519
24.	Arziktepa MFY	1,07	41 519
25.	Yangi zamon MFY	1,07	41 519
26.	Qizilmusht MFY	1,07	41 519
27.	Katta amirobod MFY	1,07	41 519
28.	Sanam MFY	1,07	41 519
29.	Mang‘it MFY	1,07	41 519
30.	Soy shildir MFY	1,07	41 519
31.	Oqtepa MFY	1,07	41 519
32.	Shopo‘lat MFY	1,07	41 519
33.	Katta boybucha MFY	1,07	41 519
34.	Qiyali qo‘rg‘oncha MFY	1,07	41 519
35.	Yashik MFY	1,07	41 519
36.	Bo‘riqum MFY	1,07	41 519
37.	Qora mulla MFY	1,07	41 519
38.	Urganji MFY	1,07	41 519
39.	Oqjar MFY	0,99	38 443
40.	Taptiqsaroy MFY	0,99	38 443
41.	Kapasaroy MFY	0,99	38 443
42.	Abdusamad MFY	0,99	38 443
43.	Doimobod MFY	0,99	38 443
44.	Bog‘ish MFY	0,99	38 443
45.	Katta turk MFY	0,99	38 443
46.	Kichik turk MFY	0,99	38 443

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-11-155-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so‘mda

T/r	MFY nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2025 yil uchun (1 kv uchun)
1.	Uvaysiy MFY	1,15	420,9
2.	Pishqaron MFY	1,15	420,9
3.	Navbaxor MFY	1,15	420,9
4.	Chinobod MFY	1,15	420,9
5.	G‘umoyli MFY	1,15	420,9
6.	G‘umoyli MFY	1,15	420,9
7.	Qora ko‘rpa MFY	1,15	420,9
8.	Teliming MFY	1,15	420,9
9.	Naymancha MFY	1,15	420,9
10.	Tangriqul MFY	1,15	420,9
11.	Minglar MFY	1,15	420,9
12.	Aravon MFY	1,15	420,9
13.	Qashqar MFY	0,99	362,3
14.	Targ‘ova MFY	1,00	366,0
15.	Raxmatillo MFY	1,15	420,9
16.	Boybo‘ta MFY	1,08	395,3
17.	Tumor MFY	0,95	347,7
18.	Qum qiyali MFY	0,95	347,7
19.	Kiyali MFY	0,99	362,3
20.	Istiqlol MFY	0,89	325,7

21.	Taypoq MFY	1,00	366,0
22.	Uymovut MFY	0,95	347,7
23.	G‘alaba MFY	1,08	395,3
24.	Arziktepa MFY	1,08	395,3
25.	Yangi zamon MFY	1,10	402,6
26.	Qizilmusht MFY	1,10	402,6
27.	Katta amirobod MFY	1,10	402,6
28.	Sanam MFY	1,10	402,6
29.	Mang‘it MFY	1,15	420,9
30.	Soy shildir MFY	1,10	402,6
31.	Oqtepa MFY	1,00	366,0
32.	Shopo‘lat MFY	1,00	366,0
33.	Katta boybucha MFY	1,00	366,0
34.	Qiyali qo‘rg‘oncha MFY	1,00	366,0
35.	Yashik MFY	1,00	366,0
36.	Bo‘riqum MFY	1,00	366,0
37.	Qora mulla MFY	0,89	325,7
38.	Urganji MFY	0,89	325,7
39.	Oqjar MFY	0,89	325,7
40.	Taptiqsaroy MFY	0,89	325,7
41.	Kapasaroy MFY	0,89	325,7
42.	Abdusamad MFY	0,89	325,7
43.	Doimobod MFY	0,89	325,7
44.	Bog‘ish MFY	0,89	325,7
45.	Katta turk MFY	0,89	325,7
46.	Kichik turk MFY	0,89	325,7

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-11-155-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalar

so‘mda

T/r	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi			G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar		
	Koeffitsient	Foiz	Mutloq qiymat	Koeffitsient	Foiz	Mutloq qiymat
1.	1,01		5 050,0	1,10	5	5 082,0

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-015-11-155-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Suv solig‘i uchun qo‘llaniladigan koeffitsient va mutloq qiymat

so‘mda

T/r	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘al aralashmasi						G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	
	Yer usti		Yer osti		Koeffitsient	Mutloq qiymat	Koeffitsient	Mutloq qiymat
	Koeffitsient	Mutloq qiymat	Koeffitsient	Mutloq qiymat				
1.	1,05	735,0	1,04	884,0	1,0	38 000,0	1,05	15 750,0